

OILAVIY MUNOSABATLARNING PSIXOLOGIK HUSUSIYATLARI

Kozimova Gulshodaxon Baxtiyorovna
ADPI MTT talabasi

Annuitatsiya: Ushbu maqolada oilaning jamiyatdagi o'rnini va hozirgi holati haqida qisqacha ma'lumotlar berib o'tiladi. Bugungi yoshlarning oilaga munosabati, ota-ona-lik burchlari haqida gap boradi. Ajrimlarning ko'payishi va ularning kelib chiqish sabablariga turlicha yondashiladi.

Kalit so'zlar: Oila, inson, hayot, jamiyat, ta'lim-tarbiya, bilim, mukammallik, vatan, farzand, erkak, ayol

Inson bolasi dunyoga kelar ekan uni oldida qanchadan-qancha sinovlar va ma'naviy yetuklikka hamda komillik sari qo'yadigan qadamlar kutib turadi. Shu o'rinda aytish joizki, inson barcha yaratilgan mavjudotlardan eng mukammalrog'i desak, adashmagan bo'lamiz. Chunki, u ongli fikrlaydigan, nutq madaniyatiga, keng dunyoqarashga ega bo'lgan mavjudotdir. Yuqorida insonga nisbatan „mukammallik“ so'zini bejizga ishlatganimiz yo'q. Bu ta'rif bir insonga emas, balki mukammallik yo'lidagi ikki insonga nisbatan ishlatiladi desak adashmagan bo'lamiz. Tabiiyki, nega bunday? Degan savol tug'iladi. Chunki, inson ulg'ayib voyaga yetadi o'ziga yarasha qandaydir kasb-hunar, bilimga ega bo'ladi. So'ng esa, oila ya'ni kichik jamiyat qurish ostonasiga yetib keladi. „Mukammallik“ so'zini ishlatganimizni ham sababi shudir. Bir inson mukammallikni tashkil qila olmaydi. U qachonki, o'z yarmi juftini topmaguncha. Oila bu – jamiyat poydevori, Vatan taraqqiyotiga, yuksalishiga asosli hissa qo'shadigan kichik jamiyatdir. Oilani asos sifatida ishlatilgani shundaki, oila bir Vatanni yuksaltirishiga ham sababchi bo'lishi mumkin yoki buni aksi ham bo'lishi mumkin. Har bir oilada turli muhit, shart-sharoit va tarbiya bo'ladi. Misol qilib olsak, otasi ichkilikka mukkasidan ketgan, onasi esa, ro'zg'or tashvishlari bilan ovvora bo'lishi mumkin. Endi, savol tug'iladi-ki, farzand tarbiyasi bilan kim shug'ullanadi? Kimlar bilan do'stlashmoqda? Kimlar bilan qayerda, nimalar qilib yuribdi? Xo'sh, eng dolzarb masalalardan biri shu emasmi aslida? Men barcha oilalarni bunday demoqchimasman albatta. Lekin, afsuski, farzandini tarbiyasiga befarqlar ham topiladi oramizda.

Avvalo, yoshlarimiz oila qurishdan oldin, o'zlarini ham ruhan, ham ma'nau tarbiyalashi kerak deb o'ylayman. Hozirgi paytga kelib afsuski, oilaga past baho beradiganlar ham bor. Bugungi kunga kelib, ajrimlar soni ko'paymoqda buning asl negizida, ma'naviy qashshoqlik, bir-birini tushunmaslik, oila haqida yetarlicha ma'lumotlarga ega emasligi, islomdan ham yetarlicha xabari bo'lmaganligidan deb bilaman.

Umuman insoniyat jamiyati tobora taraqqiy etib boraverar ekan, oila masalalarining dolzarbligi ham shunga mos ravishda ortib boraveradi va oilaga bo'lgan e'tibor ham kecha va bugunga qaraganda ertaga yanada yuqoriroq bo'ladi. Demak, jamiyatimizda oila mavzusining dolzarbligi oshib bormoqda, shuning uchun bugungi kunga kelib „oila psixologiyasi“ kursining yaratilishi va uning o'quv predmetlari qatorida maktab, kollej, litseylarda va oliy o'quv yurtlarida o'tiladigan darslar jadvaliga kiritilishi ham Respublikamiz hukumati tomonidan yuritilayotgan kuchli ijtimoiy siyosatning mantiqiy va mazmuniy davomidir desak, mubolag'a bo'lmaydi.

Nima sababdan biz ko'proq oila va unda yuz beradigan munosabatlarga e'tiborli bo'lamiz, nima sababdan oila makonida o'zimizni yaxshi, baxtli his etsak va yaqinlarimizni ham shunday e'tiborga olsak ishimiz ham yurishgandek, omadimiz chopgandek bo'ladi? Chunki, oila bizning borlig'imiz hayotimiz eng hotirjam va so'lim maskanimizdir! Oila mustahkamligiga hal qiluvchi tasir etuvchi nikoh oldi omillaridan yana biri yoshlarning o'z oilaviy hayoti haqidagi tasavvurlaridir. Ularning qanchalik reallikka yaqin bolishi, shu oila mustahkamligining bosh garovi hisoblanadi. Afsuski, hamma vaqt ham yoshlarimizning oilaviy hayot haqidagi tasavvurlari reallikka mos kelavermaydi, balki u aksariyat hollarda reallikdan tubdan farq qiladi. Chunki, hozirgi zamon bilan hamnafas bo'lib aytadigan bo'lsak, yoshlar ko'pincha yengillikka o'rganib qolmoqda va turli chetdan kirib kelgan seriallar deymizmi yoki turli xil musiqa kuy taronalar albatta yoshlarimiz ongiga jiddiy zarar bersa ajab emas. Yuqorida biz serial, kinolar haqida gapirib o'tdik bu omillarining turlicha shakllari, ko'rinishlari farqlanadi. Quyida yoshlarimiz ongiga nafaqat ongiga balki, hayotiga ham jiddiy zarar bermoqda. Sababi, yoshlarimiz zangori ekran orqali yengil-yelpi hayotni tasavvur qilib ko'z oldida gavalantirishmoqda ayrimlari, shunday bo'lsa kerak hayot degan fikr kelib qolmoqda. Lekin, afsuski, bularning ayrimlari bizning mintaletimizga va milliyligimizga qadr-qiyamatimizga to'g'ri kelmaydi desam adashmagan bo'laman. Saviyali teleko'rsatuvlar va filmlar ham bor yo'q emas albatta.

Avval g'ishtin qiyshiq qo'yarkan me'mor,

Yulduzga yetsa ham qular bu devor. (Mirzo Bedil)

Yuqoridagi satr ham go'yoki bizni gaplarimizni tasdiqlayotgandek. Eng avvalo, erkakni ham ayolni ham bu o'rinda me'morga qiyoslasak ham bo'laveradi. Qurulishi ya'ni oila boshidanoq yaxshi munosabatlarga va ikki tomonlama manfaatga qurilsa bu yaxshi samara berib uzoq yillar davomida ularga xizmat qiladi va o'ylagan barcha niyyatlariga birgalikda erishish ehtimoli katta deb o'ylayman. Hech bir devor yoki uy poydevorsiz bo'lmaganidek, Sizning quradigan oilangizning ham o'ziga xos poydevorlari bor. Ular shu oilaning yuzaga kelishiga va qurulishiga asos bo'lgan nikoh omillaridir.

Hech o'zingizga savol berganmisiz? Oila asli nima? U qanday vaziyat yoki jarayon? – deb. Oila asli bu – sizning ikki dunyoga saodatga eltuvchi maskaningiz yoki

qo'rg'oningizdir. Oila, oila har yerda oila siz shu to'rt harfda qanday so'zlar, qanday tasallilar, qandaydir mehr -muhabbatlar borligini hech tasavvur qilib ko'rganmisiz? Oilada albatta, erkak kishi rahbar ya'ni oilaning ustuni bo'ladi. Erkak qancha ayol kishiga nisbatan iltifotli, sadoqatli, hurmatli bo'lsa va ayol ham erkak kishiga nisbatan huddi shunday munosabatda bo'lsa qanday jamiyatda go'zal namunali oilalar paydo bo'la boshlaydi. Bulardan zurriyotlar esa paydo bo'lsa juda xulqli ta'lim- tarbiyasi va go'zal siyrat sifatidagi zurriyotlar bo'lib yetishadi deb o'ylayman. Bu gaplarni bejizga aytmayabman agar shunday munosabatli, ma'naviy yetuk, go'zal o'rnakli bir oila qurilsa farzand ham o'shalarga qarab o'rnak oladi. Zero, xalqimizda azaldan bir maqol bor: Qush uyasida ko'rganini qiladi. So'ng esa, jamiyatimiz yuksalib rivojlanishni boshlaydi. Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov „Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch“ asarida ta'kidlab o'tganidek bugungi yoshlarimizga birinchi bo'lib ta'lim-tarbiyani biz ota-ona, murabbiy, o'qituvchilar berishimiz kerak boshqa turli qo'shtirnoq ichidagi kishilar miyasiga ta'sir ko'rsatishdan oldin. Hozirgi zamon oilasining ijtimoiy psixologik muammolarini yoritishga bag'ishlangan psixologik adabiyotlar ham qaysidir ma'noda oilani turli ta'ziqlardan va ularga motiv berish qisqa qilib aytganda barcha muommolarni birgalashib yechish birgalikda harakat qilish lozim ekanligidam darak beradi. Zeroki, qars ham ikki qo'ldan chiqadi deb ham bejizga aytishmagan. Sizning e'tiboringizga ularning ayrimlari haqidagi ma'lumotlarni havola etamiz.

Nikoh oldi omillari qatoriga shu oila qurayotgan yoshlarning: oilaviy hayotga yetukligi; ularning oila qurish motivlari;

Ularning oila qurishgunlariga qadar bir-birlarini tanishlik muddati (qancha vaqt bir-birini tanishligi) shartlari va sharoitlari;

Ularni o'zlarining bo'lg'usi oilaviy hayotlari haqidagi tasavvurlari kabilarni kiritish mumkin. Albatta, bu omillarning har biri turlicha xarakter xulq atvorga ega bo'lishi mumkin. Va boshqa adabiyotlarda ham turlicha yondashilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. G'. B Shoumarov tahriri ostidagi „Oila psixologiyasi“ – Sharq: - Toshkent 2010
2. www.ziyouz.com
3. Safayev N.S., Mirashirova N.A., Odilova N.G., „Umumiy psixologiya nazariyasi va amaliyot“ –T.: Nizomiy nomidagi TDPU. 2013